



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 4 fevral

№ 1768

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Rajabov Ozodjon Obidovich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyat ma’muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Buxoro viloyati Buxoro tumanlararo ma’muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Mixliyev Saydulla Xasanovich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Qumqo‘rg‘on tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent shahar Toshkent tumanlararo ma’muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Xudoyqulov Zokir Normurodovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyat sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Xolov Ixtiyor Izmuurotovich – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Buxoro viloyati Buxoro tumanlararo ma’muriy sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin.

Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov